

BO'LAJAK TARBIYACHILAR KASBIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turopova M. S

QarDU tayanch doktoranti

Maktabgacha talim alohida vazirlik sifatida tashkil qilinganligi yosh avlod tarbiyasining eng quiy pog'onasiga naqadar katta etibor berilayotganligiga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"¹, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida¹gi 2019-yil-10 maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori PQ-2707- sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198- sonli Farmoni, ushu tizmni yanada rivojlantirish bo'yicha umumiy kompleks chora-tadbirlarni o'zida qamrab oladi. Bu kabi qonun xujjatlarda maktabgacha ta'lim tuzilmasini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagoglar bilan ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hartomonlama muvofiq psixologik muhitni tashkil qilish, psixologik xizmatlar sohasini to'g'ri yo'lga qo'yish va takomillashtirish juda ham muhim jihat hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kasbiga xos xislatlarni shakllantirishning ahamiyatini o'rganish asosida biz quyidagilarni kuzatdik.

№	Xislatlar	Tarbiyachilar			Bo'lajak tarbiyachilar			t
		X	m	o'rinn	X	m	o'rinn	
1.	Milliy g'oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik	1,56	0,75	1	2,48	0,68	3	-5,707***
2.	Zamonaviy o'quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an'analar, qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunish	1,87	0,52	2	2,25	0,67	2	-2,364
3.	Tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta'minlovchi pedagogik qobiliyatlar	1,94	0,82	3	1,35	0,48	1	4,904***


Kasbiy tayyorgarlik jarayonida Bo'lajak tarbiyachilarida kasbga xos sifatlarni kamol toptirish bo'yicha berilgan baholarda uch holatdan ikkitasida farq kuzatildi:

¹ Lex.uz malumotlaari asosida

“milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik” (1,56 va 2,48; $t=5,707$, $p\leq 0,001$); “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’minlovchi pedagogik qobiliyatlar” (1,94 va 1,35; $t=4,904$, $p\leq 0,001$) (4-jadval).

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tarbiyachilarning nazariga ko‘ra, Bo‘lajak tarbiyachining kasbga xos xislatlari sirasiga, birinchi navbatda “milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik” (1-o‘rin); bo‘lajak tarbiyachilarning tasavvuricha “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’minlovchi pedagogik qibiliyatlar” (1-o‘rin) kamol topishi maqsadga muvofiq sanalgan. Tarbiyachi va bo‘lajak tarbiyachilar “zamonaviy o‘quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an’analar, qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunish” kasbiy xislatini bir xil-2-o‘rinda baholaganlar. Bo‘lajak tarbiyachilar “milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik”ni (3-o‘rin), tarbiyachilar esa “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’minlovchi pedagogik qibiliyatlar”ni 3-o‘rinda baholaganlar.

Bundan ko‘rinadiki, tarbiyachilarning kasbiy xislatlari mamlakat taqdiri bilan uyg‘unlashgan metodologik tamoyillar zamirida shakllangan bo‘lishi muhim deb e’tirof etishgan. Buning ijobiy tomoni shundaki, Bo‘lajak tarbiyachida milliy g‘oya va mafkuraga sodiqlikning shakllanganligi, qolgan ikki kasbiy sifatlarni shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi, ammo pedagogik faoliyatning sifat va samaradorligini ta’minlovchi pedagogik qibiliyatlar, milliy g‘oya va mafkuraga sodiqlikning kamol topishiga asos bo‘lib xizmat qila olmasligini anglaganlar, deya olamiz. Bo‘lajak tarbiyachilar esa to‘g‘ridan to‘g‘ri kasbga xos sifatlar tarzida tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’minlovchi pedagogik qibiliyatlar: pedagogik kuzatuvchanlik, o‘z diqqat-e’tiborini taqsimlay olishlik, pedagogik fantaziyaning rivojlanganligi, o‘ziga tanqidiy munosabat, o‘zini tuta bilishi, pedagogik taktning mavjudligi va nutqning emosional ifodalanishi kabi komponentlarning o‘zaro uve‘un namoyon bo‘lishini ifodalaeganlar.



№	Bo‘lajak tarbiyachilar	Milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik	Zamonaviy o‘quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an’analar, qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiya-tini tushunish	Tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’milovchi pedagogik qibiliyatlar
	Tarbiyachilar			
1.	Milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik	0,014	- 0,085	0,007
2.	Zamonaviy o‘quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an’ana-lar, qadriyat-lar va urf-odatlarning ahamiya-tini tushunish	0,401*	- 0,425**	0,082
3.	Tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’milovchi pedagogik qibiliyat-lar	0,325*	- 0,635**	0,441**

Tarbiyachi bilan bo‘lajak tarbiyachilarning kasbga xos xislatlariga bildirgan munosabatlarining korrelyasion bog‘liqliklarini o‘rganishda bir qator ijobjiy va salbiy koeffisientlar aniqlandi: tarbiyachilarning “zamonaviy o‘quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an’analar, qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunish” xislatlari bilan bo‘lajak tarbiyachilarning “milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik” xislatlari ($r=0,401$; $p\leq 0,05$); “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’milovchi pedagogik qibiliyatlar” xislatlari bilan “milliy g‘oya va milliy mafkurani tushunish va unga sodiqlik” xislati ($r=0,325$; $p\leq 0,05$); tarbiyachilarning “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’milovchi pedagogik qibiliyatlar” xislatiga bildirgan munosabatlari bo‘lajak tarbiyachilarning ham “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’milovchi pedagogik qibiliyatlar” bilan ($r=0,441$; $p\leq 0,01$) ijobjiy korrelyasion bog‘lanish hosil qilgan (2-jadval).

Bu jihat bilan tarbiyachi va bo‘lajak tarbiyachilarning kasbga xos sifatlarni kamol toptirishdagi munosabatlarining ayrimlari o‘rtasidagi moslikni ijobjiy qabul qilsak bo‘ladi. Bu esa tarbiyachini tayyorlash jarayonida samarali omillardan biri sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Kasbga xos xislatlarning ayrimlari orasida esa salbiy korrelyasion munosabat kuzatildi: tarbiyachilarning “zamonaviy o‘quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an’analar, qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunish” va “tarbiyachi faoliyatining sifat va samaradorligini ta’milovchi pedagogik qibiliyatlar” xislati bilan bo‘lajak tarbiyachilarning “zamonaviy o‘quv-tarbiya asosini tashkil etgan umuminsoniy va milliy boyliklar, an’analar, qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunish” xislatiga bildirgan munosabati ($r=-0,425$; $r=-0,635$; $p\leq 0,01$) salbiy korrelyasion koeffisientga ega

bo‘ldi. Bu toifa munosabatlarni aks ettiruvchi xislatlardagi kamchiliklarni tarbiyachilarini kasbiy tayyorlash jarayonida ijobiy yo‘nalishda kamol toptirish muhim.

Olib borilgan tadqiqotimiz natijalariga tayanib quyidagilarni xulosa sifatida keltirishni o‘rinli deb topdik

Bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi va uning shaxsiy hamda kasbiy kamolotiga (psixologiyasiga) yuksak talablar qo‘yadi:

- ilmiy psixologiyaning tahlillariga ko‘ra ta’lim va tarbiya shakli, mazmuni va mohiyatiga binoan milliy-etnik hodisa bo‘lib, xalqning ongi, qarashlari, qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Tabiiyki, har bir xalqning etnopsixologiyasi va millatga xos idealini tarbiyachi o‘z millatining ta’limi va tarbiyasi orqali ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirgan bo‘ladi.

- bo‘lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi jarayonida, u egallashi zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik tarbiyaviy ta’sirlarning kompleksi (majmui) mazkur etnik jamoaga xos axloqiy, ijtimoiy-huquqiy va ishlab chiqarish mehnati me’yorlarining evolyusiyasiga mos tushishi hamda tarbiyalanuvchilarning mazkur psixologik-pedagogik ta’sirlarga moslasha olish imkoniyatlarini ham e’tiborga olishi zarur.

- tarbiyachi kasbiy faoliyatga moslashuvining samarali kechishi zamonaviy bilimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini puxta egallaganligi, amaldagi ta’lim va tarbiya prinsiplariga qat’iy amal qilishi, zamonaviy tarbiyachi uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim, shaxsiy va kasbiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirishi hamda undan kasbiy faoliyatida oqilona foydalana olishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ2707- sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-son Qarori qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y., 09/20/802/1658-son

3. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotlarining Davlat o‘quv dasturi. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi BMTning Bolalar jamg‘armasi YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko‘magi yordamida yaratildi va nashr etildi. T.: 2018. 5. Muslimov N, Usmonboyeva M, Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2015, 120- bet.

4. A.B. Запорожец. Избранные психологические труды. –М.: Педагогика, 2016. - 239 с.

5. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o‘qitish metodikasi. –T., 2007. / Пер.с.англ. В.А.Островского. М.: НТ Пресс, 2007,176с.

6. G‘oziev E.G‘., Jabborov A.J. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi.-T.: Universitet, 2003.-124